

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2024-1/4**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2024**

**МУНДАРИЖА**  
**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<b>Abdurashidova N.A.</b> Determining the development of fiction through its main stages of development	5
<b>Akhmedova S.H., Mizrobova V.R.</b> The problem of gender characteristics in modern language and discourse	8
<b>Akhmedova S.H., Shokulova L.B.</b> Lexical semantic analysis of virtual communication in english written discourse	10
<b>Allayarova G.N.</b> Ingliz va o'zbek tillarida harakat yo'nalishini ifodalovchi vositalarning leksik-semantik va funksional tahlili	12
<b>Alimova K.M.</b> Kampus romani janr sifatida: shakllanish tarixi	14
<b>Artikova D.A.</b> O'zbek tilida fitonimlarning lingvistik xususiyatlari	17
<b>Axmedova M.M.</b> O'zbek va rus tarixiy nasr janrlarining pragmatik xususiyatlariga doir	19
<b>Axmedova S.H., Rakhimova N.B.</b> Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida stereotiplarning pragmatik tahlili	23
<b>Bekbergenov H.U.</b> Abstrakt otlarning kognitiv ta'rifi	25
<b>Bobojonova N.J.</b> Murojaat kategoriyasining tuzilishi va uni ifodalovchi leksik birliklarining kognitiv mazmuni	28
<b>Boboyorova M.R.</b> Jane Austen and her influence on society	30
<b>Boltayeva N.R.</b> The basic concepts and factors of political discourse	34
<b>Burxonova G.</b> O'zbek va rus tillarida agrar terminlarning o'zaro tarjimasini va leksikografik talqini	38
<b>Djabbarova K.A.</b> Cognitive mechanism of hyperbole in the english language	40
<b>Do'smatov S.T.</b> Badi' az-Zamon al-Hamadoniyy va uning maqomalari	42
<b>Dustmamatova N.P.</b> Graduonimiya va unga yondosh tushunchalar tavsifi	45
<b>Egamberdiyeva M.G'.</b> Madaniyatlararo muloqotda nutqiy etiketning antoposentrik paradigmasi	48
<b>Gadayshaev B.A.</b> Ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillaridan o'zlashgan harbiy va ijtimoiy so'zlarning o'zbek va rus tilshunosligidagi o'rni	51
<b>Gafurova G.B.</b> Publisistik uslubdagi matnlar elektron tarjimasini funksional pragmatik muvofiqligi	53
<b>Gulyamova M.A.</b> Xalqaro ekologik tashkilotlarning jamoatchilik bilan aloqalari mexanizmlari	56
<b>Jalilova L., Ergasheva F.</b> The pearls of irony in Ernest Hemingway's novel "The sun also rises"	58
<b>Jumaniyozova S.Sh.</b> Ingliz frazeologizmlarida tarixiy xotiraning aks etishi	61
<b>Haydarov A.A., Barnoyeva M.</b> So'zlararo ma'noviy munosabat turlari	63
<b>Haydarov A.A., Yadgorova M.</b> Inson tuyg'ulari ifodalanishining konseptual-chog'ishtirma tadqiqi	67
<b>Khidirova M.A., Temirova M.A.</b> Linguocultural analysis of animal names in english and uzbek languages	69
<b>Kobilova A.B., Akhmedova M.</b> Political discourse and periphrases used in this field	72
<b>Kobilova A.B., Ruziyeva D.</b> Advertising as a special type of text	75
<b>Kudratov A.A.</b> O'zbekistonda tarjima jarayoni	78
<b>Masharipova Yu.O.</b> Linguocultural analysis of the uzbek culture cradle named beshik	82
<b>Maxmudova N.M.</b> Ispan tilida quvonchni ifodalovchi so'zlarning tasnifi	85
<b>Maxmudova Sh.M.</b> The role of common phrasal verbs to organize more effective ESL classes	87
<b>Nematova I.</b> Reklama matnlaridagi imperativnin qo'llanilishining o'ziga xos jihatlari	91
<b>Odilova G., Xamidova M.</b> Olam milliy lisoniy manzarasida glyuttonik diskursning o'rni	93
<b>Qo'ymuradova G.M.</b> Holat fe'llarini tahlil qilishda assotsiativ metoddan foydalanish	99
<b>Qurbonova F. A.</b> Mifologik tafakkur va ijodkor badiiy olami	101
<b>Qurbonova G.A.</b> Qadimgi ingliz gidronimlarining kelib chiqish tarixi va yasalishi	104
<b>Raximboyeva S.F.</b> Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romanida bolalar ruhiyatining ifodalanishi	107
<b>Rustamov I.T., Amirova N.B.</b> Anekdot janrining diaxronik-sinxronik tahlili	109
<b>Sabirova N.E.</b> Poetik ramzlar genezisi va o'ziga xos xususiyatlari	113
<b>Safarova Z.T., Narzulloyeva M.N.</b> Ch.Dikkensning "Dombi va o'g'li" asarida bola obrazining ifodalanishi	116
<b>Safarova Z.T., Saidova D.B.</b> Ingliz tarbiya romanlarida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar obrazlari tahlili	119
<b>Safoyeva S.</b> Tilshunoslikda pragmatik belgilarini tadqiq qilish	121

poetik vosita bo'lgan ramzlarni o'rganish xalq dunyoqarashining rang – barang qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Колер И., Ранке И., Ратцел Ф. История человечества (доисторический период), СПб.: Полигон, 2003, С.78.
2. O'sha joyda, 77-бет.
3. Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk, — T.: Fan, 1960.
4. Oshiqnoma, II -kitob, Urganch, "Xorazm", 2006, 301-бет.
5. Лосев А.Ф. Проблемы символа и реалистическое искусство, М.: Искусство, 1976, С.18.
6. Лосев А.Ф. Проблемы символа и реалистическое искусство. С.18.
7. Бутырлин К.М. Проблема поэтического символа в русском литературоведении (XIX-XX вв.) // Исследования по поэтике и стилистике, Л.: Наука, 1972, С.249.
8. Веселовский А.Н. Историческая поэтика, М.: ВШ., 1989, С.147-148.
9. Бутырлин К.М. Кўрсатилган манба, 259-бет.
10. Sharopova A. Olamlar ichra olamlar, 59-бет.
11. Лосев А.Ф. Ко'rsatilgan asar, 36-бет.
12. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji, T.: Fan, 2006, 112-бет.
13. Лосев А.Ф. Ко'rsatilgan asar, 54-55-бетлар.
14. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari, 7-бет.
15. Komil, T.: "Adabiyot va san'at", 1975, 79-бет.
16. Oshiqnoma, II kitob, Urganch, "Xorazm", 2006, 97-бет.
17. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari, 9-бет.
18. Лосев А.Ф. Кўрсатилган асар, 144-бет.

UO'K 808.5

### CH.DIKKENSNING "DOMBI VA O'G'LI" ASARIDA BOLA OBRAZINING IFODALANISHI

*Z.T.Safarova, PhD, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

*M.N.Narzulloeva, magistr, Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** *Ingliz tanqidiy realizmining buyuk vakili Charlz Dikens ijodi turli xil xarakter va toifadagi bolalar qiyofasi, ularning hayot tarzi, taqdiri, orzu-umidlarining tasviriga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Adib obrazlarining ko'pchiligi ijtimoiy tuzum adolatsizliklari hamda kattalarning nohaq munosabatlaridan aziyat chekkan yetim bolalar sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, "Dombi va o'g'li" asarida otasining ulkan orzulari-yu hayotga bo'lgan qarashlariga munosib bo'lish uchun zimmasiga og'ir yukni olishga majbur bo'lgan murg'ak bola hayoti tasviriga olinadi. Mazkur maqolada qahramon kechinmalari orqali bola obrazining yoritib berilishi tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Tarbiya romanlari, obraz, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, qahramon, motiv, janr.*

**Аннотация.** *Чарльз Диккенс, великий представитель английского критического реализма, отличается тем, что его произведения богаты образами детей разных характеров и категорий, их образа жизни, судеб и мечтаний. Большинство героев писателя предстают сиротами, страдающими от несправедливости общественного и несправедливого отношения взрослых. Например, "Домби и сын" изображают жизнь маленького мальчика, которому приходится взять на себя тяжёлое бремя, чтобы соответствовать большим мечтам и взглядам своего отца на жизнь. В данной статье анализируется освещение образа ребенка через переживания героя.*

**Ключевые слова:** *Романы воспитания, образ, педагог, ученик, герой, мотив, жанр.*

**Abstract.** *Charles Dickens, the great representative of English critical realism, is distinguished by the fact that his works are rich in images of children of different characters and categories, their lifestyle, fate, and dreams. Most of the writer's characters appear as orphans who suffer from the injustices of the social system and unfair relations of adults. For example, "Dombey and son" depicts the life of a small boy who has to take on a heavy burden in order to live up to his father's big dreams and views on life. This article analyzes the illumination of the image of the child through the experiences of the hero.*

**Keywords:** *Novels of formation, image, educator, student, hero, motive, genre.*

Badiiy adabiyotda yozuvchi ma'lum bir davr voqeligini aks ettirishni maqsad qilar ekan, avvalo, o'sha davr uchun xos bo'lgan obrazlarni tanlab oladi hamda ijtimoiy qatlam vakillarining xarakter-xususiyatlarini shu obrazlar vositasida bayon qiladi. Demak, badiiy asarda hayot obrazlar yordamida aks ettiriladi. Muallif o'zi yaratgan obraz vositasida hayotiy kuzatishlariga asoslangan *yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson xayotining umumlashma va, ayni choqda, konkret manzarasidir*".[9,62-63] Ushbu ta'rifdan anglashilyapdiki, obraz o'zida ham reallik belgilarini ham to'qima mahsulini mujassam qiladi. Hech bir obraz to'liqligicha yozuvchi xayolotiga asoslangan bo'lmaydi.

a  
d  
a  
b

i Ingliz yozuvchisi Ch. Dikens aksariyat romanlarida bosh qahraman sifatida bola obrazini tanlaydi va uning bu asarlari tarbiya romanlari deb ta'riflanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu bo'ladigan salbiy va ijobiy personajlar siyosiy-ijtimoiy davr manzarasini ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, adibning "Dombi va o'g'li" asarida otasining orzu-umidlarini amalga oshirish, u istagandek merosxo'r bo'lib yetishish yo'lida ojiz yelkasiga ulkan mas'uliyatni olgan yosh bola hamda otasidan mehr ko'rmay, uning ozgina e'tiboriga sazovor bo'lish umidida yolg'izlikda, tushkun munosabatlari mohirona yoritilgan, o'g'il farzandni ulug'lash, qiz farzandni, aksincha, mensimaslik kabi illatlar ko'rsatib berilgan. Katta tadbirkorlik firmasining egasi Pol Dombi juda takabbur inson bo'lib, uning yagona istagi o'g'il farzandga – biznesini davom ettiruvchi vorisga ega bo'lish edi. Uning hayotida bundan muhim narsa yo'q edi. U ayollarni odam o'rnida ko'rmaydigan, ularga keraksiz buyumdek qaraydigan obraz, shuning uchun qizi Florengga hech qachon yaxshi nazar bilan ko'rmaydi. Uningni bir-bir ta'lim foydali shug'ullanib bo'laydigan bo'lib, buni uning kelib yechiq tek o'tirishini yan, fikri bir-bir boshiga o'tirganida ko'radigan o'g'il farzandni ham ko'ra keladi.

Dombi xonim uzoq kutilgan farzandni dunyoga keltirib, vafot etadi. Chaqaloqqa enagalar g'amxo'rlik qilishadi, atrofida nima bo'layotganini anglamayotgan bola eng mukammal darajadagi sharoitlar bilan ta'minlangan edi. Mehr-e'tiborga muhtoj Florengni esa, go'yoki hech kim payqamas edi. Florengga hatto ukasining yoniga kelish ta'qiqlangan edi. Agar xizmatkorlar Janob Dombiga Florens juda yolg'iz, ukasi bilan o'ynasin, ko'ngli yoziladi deganlarida u aslo rozilik bermagan bo'lardi. Chunki, u uchun qizining his-tuyg'ulari ahamiyatsiz edi. Muallif qizning ichki kechinmalarini quyidagicha ifodalaydi: *When little Florence timidly presented herself, Mr. Dombey stopped in his pacing up and down and looked towards her. Had he looked with greater interest and with a father's eye, he might have read in her keen glance the impulses and fears that made her waver; the passionate desire to run clinging to him, crying, as she hid her face in his embrace, "Oh father, try to love me! There's no one else!"*[1,38]

Yosh qizaloqning o'z otasi tomonidan bunday itarilishi, uning qalbini vayron qiladi. Shunday bo'lsa-da u hech qachon umidini uzmaydi. Bir kun kelib otasi uni yaxshi ko'rib qolishini intizorlik bilan kutib yashaydi. Ammo, uning mayus boqishlari otasining muz yuragini hech qachon eritmaydi. Qizning bunday holati faqatgina enagani tashvishga solar, bu mehribon ayol qanday qilib qizni baxtli qilish yo'lini izlardir. Shuning uchun oqila va mehribon enaga ayyorlik bilan Janob Dombiga o'g'li uchun boshqa bolalar bilan o'ynashi foydali bo'lishini, opasi bilan ko'proq vaqt o'tkazsa, kayfiyati ko'tarilishini aytadi, faqat shundagina u Florengga ukasi bilan vaqt o'tkazishga ruxsat beradi. Enaganing asl maqsadi qizga xursandchilik bag'ishlash hamda oilaning bir bo'lak sifatida his qilishi uchun imkon yaratib berish edi. Haqiqatdan ham, bu voqea Florens uchun ulkan quvonchlar olib keldi. Uning hayotida endi yaqin kishisi, qadrlil insoni bore di. Shu kundan boshlab, Florens ukasiga onalarcha g'amxo'rlik qila boshlaydi. Opa-uka bir-birlariga qattiq bog'lanib qolishadi. Florens obrazi

cheksiz mehr-muhabbat, sabr-toqat ramzi bo'lib o'z oilasi uchun, ukasi va otasini baxtli qilish uchun hamma narsaga tayyor bo'ladi. U yosh bo'lsa-da, juda aqlli va kuchli irodaga ega shaxs.

Asarda tasvirlangan boshqa bir bola obrazi, janob Dombining uzoq kutilgan o'g'li kichkintoy Poldir. Pol o'zidan kutilayotgan tengsiz iqtidor va matonatni namoyish qilishi lozimligini yaxshi tushunardi. Ammo, Pol juda nimjon va ojiz bo'lib o'sayotganligi tufayli, orzu-istaklari har doim ham imkoniyatiga mos kelavermaydi. Yozuvchi bolaning jismoniy holatini shunday tasvirlaydi: .... *all this vigilance and care could not make little Paul a thriving boy. Naturally delicate, perhaps, he pined and wasted after the dismissal of his nurse, and, for a long time, seemed but to wait his opportunity of gliding through their hands, and seeking his lost mother.* [1,95]

Ko'rinib turibdiki, Pol tabiatan ojizgina bo'lib, sal bahona bilan onasi tomon ravona bo'lishga imkon qidirayotgandek tasvirlanyapti. Bu orqali bir tomondan ona mehridan tug'iliboq judo bo'lgan, hayotda yashab ketishga qiynalayotgan bola siymosi, ikkinchi tomondan oila biznesini davom ettiruvchi yagona merosxo'r sifatida unga yuklangan mas'uliyat yukini ko'tara olmayotgan murg'ak qiyofasi gavdalanadi. Pol bir kuni otasiga o'zining kuchsizligi, juda tez holsizlanib qolishi, suyaklari qaqshab og'rishi haqida shikoyat qilib gapiradi. U so'rayotgan g'ayrioddiy savollardan va yoshiga mos bo'lmagan mavzularda so'z ochganidan janob Pol o'zini go'yo kichkina "keksa odamcha" bilan suhbatlashayotgandek his qiladi. "Keksa odamcha" iborasi asar davomida bir necha bor tilga olinadi. Bu bilan muallif katta umidlar bog'langan bu bolaning yoshiga nisbatan ancha erta ulg'ayishga majbur bo'lganiga ishora qilyapti.

Bu holat janob Dombini tashvishlantirib qo'yadi, u opasi bilan maslahatlashgach, dengiz havosi foyda qiladi degan niyatda ham davolanib, ham ta'lim olishi uchun o'g'lini Braytondagi Pipchin xonim bolalar pansionatiga yuboradi. Bu xonim haqidagi ilk tasavvur ushbu jumladan uyg'otiladi: ... *She was generally spoken of as 'a great manager' of children; and the secret of her management was, to give them everything that they didn't like, and nothing that they did...* – U bolalarning "buyuk boshqaruvchisi" deb ta'riflanardi. Uning boshqaruv tizimi siri shunda ediki, u bolalar yoqtirmagan hamma narsani ularga berardi, ular yoqtirgan hech narsani bermasdi. Mana shu birgina jumla kitobxonga bolalar qanday ahvolda o'qitilgani va ularga qanday munosabatda bo'linganini ochib bermoqda. Dikens asarlari mana shunday yorqin tasvirlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu yerda Polning sog'ligi bir oz yaxshilangandek bo'ladi. Shunda janob Dombi uni tengdoshlariga yetib olsin deb, o'ta kuchli bosim bilan o'qitiladigan janob Blimber maktabiga o'qishga beradi. Bu yerda juda murakkab fanlar o'qitilar, bolalar uchun ularni o'zlashtirish og'irlik qilardi. Florens ukasiga yordam berish niyatida barcha kitoblarni qidirib topadi va o'zi o'qib o'zlashtiradi. Dam olish kunlarida esa, ukasiga mavzularni tushuntirib beradi. Afsuski, opasi qanchalik asrab-avaylamasin, kundan-kun Pol kuchdan qolaveradi va oxir-oqibat olti yoshli bola vafot etadi. Bu judolik Florengga qattiq ta'sir qiladi, endi uning birorta ham yaqini qolmagan edi. Bu umumiy dard otasi bilan uni yaqinlashtirishidan umid qilgan qiz, bir kuni xonasiga qamalib olgan otasining yoniga keladi. Biroq, uning ko'zlarida hech qanday otalik mehrini topmaydi. Sovuqqon va hissiz otasi unga befarq boqadi va bezovta qilmasligini so'rab, uni xonadan chiqarib yuboradi. Florens obrazi chekchiz mehr-muhabbat tashuvchi farishta misoli yaratilganki, uning har bir so'zi, har bir harakatida bu ko'rinib turadi. U butun umr otasidan e'tibor, mehr, shirin so'z kutib yashaydi, ularni hech qachon otasidan ko'rmagan bo'lsa-da, qalban uni yaxshi ko'rishda davom etadi. Anglashilyaptiki, qiz farzand ham otalarga baxt-saodat, xotirjamlik keltira oladi, hayotiga mazmun olib keladi. Ularni qadrlamaganlar, eng baxtiqaro insonlardir. Bu haqiqatni janob Dombi kech bo'lsa-da tushunib yetadi. Adib ushbu asarida nafaqat yosh qahramonning, balki yoshi katta insonning ham ma'nau o'sishi va qarashlari o'zgarishini mohirona yaratib bergan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ch.Dickens. Dombey and Son. Bradbury and Evans. – London,1848.-779 p.
2. Safarova, Z. (2022). A realistic artistic depiction of the lives of orphans in Dickens's novel Oliver Twist. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 13(13).
3. Tolibovna, S. Z. (2022). Analysis of abandoned and orphan heroes in JK Rowling's "garry potter". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 401-405.
4. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 287 б.
5. Safarova, Z. (2023). Tarbiya romanlarining badiiy adabiyotdagi genezisi va o'rnı. центр научных публикаций (buxdu. uz), 40(40).

6. Buckley J.H. Season of Youth: The Bildungsromane from Dickens to Golding. – Harvard: Harvard University Press, 1974. – 352 p.
7. Tolibovna, S. Z. (2023). Expression of orphans' life through the theme of "hunger" in bildungsromans.
8. Safarova, Z. (2023). Education in sharlotte bronte's "jeyn eyre". центр научных публикаций (buxdu. uz), 32(32).
9. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. – 464 с.
10. Tolibovna, S. Z. (2023). "Longing" as a main theme in english and Uzbek bildungsromans. Asian Journal Of Multidimensional Research, 12(8), 11-15.
11. <https://thevirtuallibrary.org/>

UO'K 808.5

## INGLIZ TARBIYA ROMANLARIDA TARBIYACHI VA TARBIYALANUVCHILAR OBRAZLARI TAHLILI

*Z.T.Safarova, PhD, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

*D.B.Saidova, magistrant, Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** *Obraz badiiy adabiyotning eng muhim unsurlaridan biri bo'lib, yozuvchi real voqelikni ifodalashda obrazga tayanadi. Yaratilgan asar janriy xususiyatiga ko'ra bir qator obrazlar tizimi yuzaga keladi. Shu jumladan, tarbiya romanlarida ham tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar obrazlaridan ko'proq foydalaniladi. Bu obrazlar ko'proq tanlanishiga sabab, tarbiya romanlarida asosan yetim bolalar bosh qahramon sifatida tanlanadi va ularning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan obrazlarni yaratishga ehtiyoj tug'iladi.*

**Kalit so'zlar:** *Tarbiya romanlari, obraz, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, qahramon, motiv, janr.*

**Аннотация.** *Образ - один из важнейших элементов художественного произведения, и писатель использует его для выражения действительности. В зависимости от жанра создаваемого произведения появляется система образов. В романах воспитания чаще используются образы учителей и учеников. Причина, по которой эти персонажи выбираются чаще, заключается в том, что главными героями воспитательных романов выбирают детей-сирот, и возникает необходимость создания персонажей, ответственных за их воспитание.*

**Ключевые слова:** *Учебные романы, образ, педагог, ученик, герой, мотив, жанр.*

**Abstract.** *Image is one of the most important elements of a literary work, and the writer uses it to express reality. Depending on the genre of the work being created, a system of images appears. In novels of formation (Bildungsromans), images of educators and students are more often used. The reason why these characters are chosen more often is because orphans are chosen as the main characters in Bildungsromans, and there is a need to create characters responsible for raising them.*

**Keywords:** *Novels of formation, image, teacher, student, hero, motive, genre.*

Ma'lumki, badiiy asarda hayot obrazlar yordamida aks ettiriladi. Muallif o'zi yaratgan obraz vositasida hayotiy kuzatishlariga asoslangan voqea-hodisalarni qayta tiklaydi. Prof. L.I.Timofeyevning ta'rificha, "obraz – to'qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson xayotining umumlashma va, ayni choqda, konkret manzarasidir." [2,62-63]

Tolstoyning fikricha, adabiyotda ma'lum bir tip yaratish uchun shu toifadagi juda ko'p kishilarga xos xususiyatlarni tanlab olib, badiiy bir butunlikka jamlash kerak. [1, 52-53] Shuning uchun asar qahramoni hayotdagi kishilarga juda o'xshab ketsa-da, aynan ularning o'zi bo'la olmaydi. Chunki, obraz umumlashma mahsuli bo'ladi. Bu haqda N.G. Chernishevskiy "San'atning voqelikka estetik munosabatlari" asarida shunday yozadi: "Yozuvchi ko'pgina individual shaxslarni kuzatadi; bularning hech qaysi tip bo'lib xizmat qila olmaydi; lekin u har biridan umumiy tipik xususiyatlarini aniqlaydi; barcha tasodifiy xislatlarni chiqarib tashlab har xil kishilarga xos bo'lgan xususiyatlarni badiiy bir butunlikka birlashtirish yo'li bilan xarakter yaratadi." [1,42-43] Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bir badiiy obraz o'zida ko'plab insonlarning xarakter xususiyatlarini aks ettiradi. Muallif o'z shaxsiy orzu-umidlariga asoslangan jamiyatni tasvirlashni maqsad qilgan bo'lsa, har tomonlama mukammal, ideal shaxs obrazini shakllantiradi. Bunday shaxs real hayotda uchramaydi, shunchaki, yozuvchi xayolidagi voqelikning in'ikosi hisoblanadi. Bular romantik obrazlar bo'lib, "Farhod va Shirin"dagi Farhod, "Saddi Iskandariy"dagi Iskandar, "Uch mushketyor"dagi Dartanyan va